



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



UDK:330.364.12(045)

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.4>

MINTAQA QISHLOQ JOYLARIDA RAQAMLI XIZMAT KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Dilafroz Baymatovna Taylakova

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ В СЕЛЬСКИХ РАЙОНАХ РЕГИОНА

Тайлакова Дилафроз Байматовна

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DIGITAL SERVICES IN RURAL AREAS OF THE REGION

Dilafroz Baymatovna Taylakova

Received: January 9, 2026 Revised: January 13, 2026 Accepted: January 16, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaq qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirish mintaq qishloq joylarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mintaqa qishloq joylarida raqamli texnologiyalar asosida bank-moliya, savdo, ta'lim, tibbiyot, davlat xizmatlari va agroservis tizimlarining joriy etilishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartiradi, mintaq qishloq aholisining zamonaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, raqamli iqtisodiyot, qishloq joylari, xizmat ko'rsatish sohasi, aholi bandligi, aholi turmush darajasi, raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

Аннотация. В данной статье утверждается, что развитие цифровых услуг в сельских районах региона является одним из важных факторов обеспечения устойчивого социально-экономического развития сельских территорий региона. Внедрение в сельских районах региона банковских и финансовых, торговых, образовательных, медицинских, государственных и агросервисных систем на основе цифровых технологий позволит сократить экономическое неравенство между регионами, расширить доступ сельского населения региона к современным услугам и предложить научные решения для снижения транзакционных издержек.

Ключевые слова: регион, цифровая экономика, сельские районы, сектор услуг, занятость, уровень жизни, цифровые технологии, инновационная деятельность.

Abstract. This article argues that the development of digital services in rural areas of the region is one of the important factors in ensuring sustainable socio-economic development of rural areas of the region. The introduction of banking and finance, trade, education, medicine, public services and agro-service systems based on digital technologies in rural areas of the region will reduce economic disparities between regions, expand the access of the rural population of the region to modern services, and provide scientific proposals to reduce transaction costs.

Keywords: region, digital economy, rural areas, service sector, employment, standard of living, digital technologies, innovation.

■ KIRISH

Mintaqa qishloq joylarida raqamli infratuzilma va xizmat ko'rsatishni rivojlantirilsa, mintaq qishloq joylarida xizmatlar bozori kengayib, mehnat unumdorligi va tadbirkorlik faolligi ortadi. Mintaqa qishloq joylarda elektron to'lov tizimlari, masofaviy bank xizmatlari, onlayn savdo platformalari va "Elektron hukumat" xizmatlarining keng joriy etilishi moliyaviy inklyuziyani kuchaytirib, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartiradi.

Natijada mintaq qishloq aholi daromadlari barqarorlashadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bundan tashqari, raqamli xizmat ko'rsatish orqali mintaq qishloq joylarida axborot almashinuvi, bozor narxlariga tezkorlik bilan kirish, logistika va resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shuningdek, masofaviy ta'lim va telemeditsina xizmatlari inson kapitali sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, mintaq qishloq joylarida raqamli xizmatlar infratuzilmasini



rivojlantirish, internet tarmog'i qamrovini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion servis modellarini joriy etish hududiy iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda raqobatbardosh qishloq iqtisodiyotini shakllantirishning muhim ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi.

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, mintaq qishloq joylarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. "Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, ular uchun etarli miqdorda unumli ish o'rinlarini yaratib berish, qishloq aholisi turmush darajasini shahar aholisi turmush darajasiga qadar ko'tarish"[1] bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 16 iyunda "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752-son[2], 2021 yil 11 mayda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113 son[3], 2018 yil 14 iyulda "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son[4] Qarorlari qabul qilingan. Mazkur ustuvor vazifalarni ijrosini ta'minlashda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandlik darajasini oshirish, raqamli texnologiyalardan to'liq samarali foydalanish asosida rivojlantirish kabi yo'nalishlarida olib borish dolzarb masala hisoblanadi.

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni jadal rivojlantirish va uning yalpi ichki maxsulotdagi ulushini keskin oshirish bir qator muhim ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal etish, ya'ni aholini ish bilan ta'minlash, kishilarning real daromadlarini ko'paytirish, mintaq qishloq aholisining barcha qatlamlarining turmush farovonligini yaxshilash imkonini bermoqda. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, xizmatlarning mamlakat yalpi ichki maxsulotdagi ulushi yildan-yilga o'sib, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 41,6 foizni tashkil etgan bolsa, 2025 yilga kelib, u 56,1 foizga etdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mintaq qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatish jarayonlar sekinroq rivojlanmoqda, mintaq qishloq joylarida aholining servis xizmatlariga bo'lgan talablari etarli darajada ta'minlanmayapti. Bu esa, o'z navbatida, mintaq qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, uning aholi turmush darajasiga ta'sirini ma'lum darajada pasaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mintaq qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni har tomonlama rivojlantirish, aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilash uchun mulkiy munosabatlar, agrar islohot, moliya-kredit islohoti, ijtimoiy islohotlar va tashqi iqtisodiy aloqalar islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni aholiga xizmat ko'rsatish tizimini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga mos ravishda

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

rivojlantirish va shu yo'l bilan butun mintaq qishloq joylari aholi turmush farovonligini yuksaltirishga erishish bo'yicha yagona konsepsiyaning ishlab chiqilmaganligi ham ushbu yo'nalishda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarurligini takozo etadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni har tomonlama rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush sharoitini yaxshilash masalalarida xorijlik buyuk iqtisodchi olimlardan Adam Smit xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Halqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" nomli asarida "unumli mehnat" va "unumsiz mehnat" tushunchalari xususida fikr bildirganligi bizga ma'lum. Shu orqali A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta xisssa qo'shgan.

Hozirgi kunga kelib, mintaq qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatish asnosidagi xizmat bo'lib, ushbu faoliyat turli jarayonlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Avvalo, "xizmat" so'zi, asosan, quyidagi ikki xil lug'aviy ma'noga ega: - boshqa birovga foyda keltiruvchi harakat va biror kimga xo'jalik qulayliklarini taqdim etmoq [5].

Xizmat tushunchasi yaralishiga katta xisssa qo'shgan A.Smitning moddiy va nomoddiy qarashini yanada mukammal aks ettirgan olim M.M.Muxammedov o'zining "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari" nomli monografiyasida "inson iste'moli uchun zarur bo'lgan har qanday noz – ne'mat (ya'ni u moddiy yoki nomoddiy bo'lishidan qat'iy nazar) ishlab chiqarishga sarflangan mehnat baribir jamiyat uchun foydali, samarali unumli deb qaralishi va ijtimoiy boylik tarkibiga albatta kiritilishi lozim"[6] deb qaraydi. Shu orqali olim har qanday ne'mat yaratishga qaratilgan mehnat qatori xizmat ko'rsatishda band bo'lganlarning mehnati ham qiymat va iste'mol qiymatini yaratishga qodirligini ilmiy isbotlaydi.

"Xizmat" atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha nuqtai nazardan qo'llanilib iqtisodiy bilim sohasiga bog'liq holda talqin qilinadi. Ushbu atama doirasida ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarimiz nazariy tadqiqotlar olib borishgan. Taniqli olimlardan biri F.Kotler bo'lib, u xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir" [7].

Respublikamizning taniqli olimlaridan I.S.Tuxliyev "Xizmatlar - bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir" [8] deydi va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya'ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo'ladi deb, ta'kidlashga harakat qiladi. Xizmat tushunchasiga I.Ochilov tomonidan berilgan ta'rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: "Xizmat



deyilganda, insonning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi"[9] deb ta'rif bergan.

Professor M.Q.Pardayevning fikriga ko'ra, "Xizmat ko'rsatish sohasi deyilganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalar tushuniladi. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi"[10] deya mukammal ta'rif berib, inson ijtimoiy faoliyati rivojlanishida unga ko'maklashadigan muhim tarmoq va soha sifatida aynan xizmat ko'rsatish sohasini keltiradi. Shu orqali olim xizmat ko'rsatish sohasini to'g'ridan – to'g'ri inson iste'moliga yo'nalishini moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohasi sifatida har bir iste'molchi og'irini engil qiladigan soha ekanligini ilmiy isbotlaydi.

B.B.Mardonov fikricha "Xizmat bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchi ehtiyojini qondirishga (og'irini engil, uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilishga) va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir"[11] deb ta'riflab istemolchi xizmatning muhim bug'ini ekanligini asoslagan.

Yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, davlat, jamiyat, korxona va tashkilotlar yoki yakka iste'molchi bo'lishidan qat'i nazar o'z talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ko'rinishdagi xizmat ko'rsatishdan unumli foydalanib kelmoqda. Shu sababli mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishdan foydalanishga qaratilgan va ularning talab va ehtiyoji, raqamli xizmat ko'rsatishning munosib rivojlanishida aynan mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishning o'zi soha va tarmoqlarning lokomotivi ekanligining yaqqol dalilidir.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni har tomonlama rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush sharoitini yaxshilash strategiyalarini shakllantirish asosida uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga doir tahlilida induksiya induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil etish, jadval va rasmlar usullaridan foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlarning provard maqsadlari, bu eng avvalo, mintaqa qishloq joylarida inson uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishdir. Bu esa mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Mintaqa qishloq aholisi uchun xizmat ko'rsatishni ta'minlashning bir qancha tarmoq muammolarini

aniqlashtirish yuqori ahamiyat kasb etadi. Xususan, mintaqa qishloq aholisining qarishi va kamayishi, mintaqa qishloq joylarida xizmat ko'rsatishning holati jamoat transporti vositalarining mavjud emasligi, yangi axborotni taqdim etish va kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim va tarbiya uchun etarli va sifatli resurslar, sog'liqni saqlash va innovatsion yondashuvlarga ehtiyojlar borligi shular jumlasidandir. Shu maqsadda mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni ta'minlash usullarini aniqlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi"[13]. Ushbu qarorda 2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlar va vazifalar etib quyidagilar belgilangan.

Xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha o'z echimini kutayotgan muammoli masalalarni hal qilish, mazkur yo'nalishda tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash, ularning g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadida:

2021 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish;

- aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o'qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi "kompleks xizmatlar" ko'rsatishni tashkil etish;

- respublikada xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini kuchaytirish;

- xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini kengaytirish;

- respublikaning barcha hududlarida mavjud ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, bunda xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish.

Olib borilgan tadqiqotimiz jarayonida mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish;
- Infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- Kadrlar salohiyatini oshirish;
- Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash;
- Hududlararo xizmatlar tengligini ta'minlash;



– Innovatsion xizmat modellarini joriy etish; – Barqaror va ekologik toza xizmatlarni
 – Xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini rivojlantirish va h.k.
 oshirish;

1-jadval.

2021 — 2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari [1]

T/r	Xizmatlar nomi	2020-yil		Prognoz (o‘rta sur‘ati, foiz)			
		hajmi, mlrd. so‘m	o‘rta sur‘ati, foiz	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2020-yilga nisbatan, baravar
	Jami xizmatlar	218 853,5	102,3	120,7	128,6	134,7	2,1
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>							
I	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, shu jumladan:	12 885,9	115,3	123,1	133,6	138,6	2,3
1.1.	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	891,7	119,1	125,8	136,3	141,4	2,4
1.2.	Axborot sohasidagi xizmatlar	632,2	157,8	125,7	135,4	140,5	2,4
II	Moliyaviy xizmatlar, shu jumladan:	45 817,2	125,6	122,5	135,2	140,7	2,3
2.1.	Sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha xizmatlardan tashqari	2 333,5	104,7	116,4	129,9	135,4	2,0
III	Transport xizmatlari, shu jumladan:	53 772,5	91,6	120,4	125,9	130,8	2,0
3.1.	Avtotransport xizmati	29 196,6	103,5	121,0	126,5	131,4	2,0
3.2.	Quvur yo‘li transporti xizmatlari	9 167,3	89,0	120,3	125,2	130,9	2,0
3.3.	Temir yo‘l transporti xizmatlari	7 420,9	111,6	120,5	125,7	130,7	2,0
3.4.	Havo transporti xizmatlari	3 139,2	41,9	120,2	121,8	126,8	1,9
3.5.	Pochta va kuryerlik xizmatlari	355,4	77,2	121,0	126,2	130,5	2,0
IV	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 878,5	86,5	128,9	136,3	139,8	2,5
V	Savdo xizmatlari	56 553,9	101,7	119,7	125,8	132,9	2,0
VI	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	6 089,7	91,1	119,5	125,4	133,4	2,0
VII	Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	9 073,0	107,4	119,2	128,7	134,9	2,1
VIII	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3 209,4	89,9	128,8	136,0	142,0	2,5
IX	Ijara xizmatlari	4 172,1	98,9	117,9	125,3	131,5	1,9
X	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	3 407,4	96,1	116,2	124,5	133,0	1,9
XI	Shaxsiy xizmatlar	4 983,3	92,1	116,6	124,5	132,5	1,9
XII	Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 925,7	93,7	117,7	123,8	129,8	1,9
XIII	Boshqa xizmatlar: shu jumladan:	8 084,7	98,3	116,9	123,2	130,2	1,9
13.1.	Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar	560,7	116,7	116,5	123,0	129,8	1,9
13.2.	Bosh kompaniyalar xizmati; boshqaruv masalalari bo‘yicha maslahat berish xizmatlari	1 463,6	239,8	116,8	123,3	129,8	1,9
13.3.	Reklama va bozor konyunkturasini o‘rganish sohasidagi xizmatlar	564,7	78,5	116,3	122,8	129,3	1,8
13.4.	Turistik agentliklar, turoperatorlarning xizmatlari, bron qilish va u bilan bog‘liq boshqa xizmatlar	521,4	56,7	117,0	123,3	130,2	1,9
13.5.	Binolarga xizmat ko‘rsatish va landshaftni obodonlashtirish bo‘yicha xizmatlar	513,2	85,5	117,6	123,3	130,4	1,9
13.6.	Madaniyat va sport sohasidagi xizmatlar	712,0	89,9	115,9	122,9	129,8	1,8
13.7.	Boshqalar	3 749,1	91,9	117,3	123,4	130,5	1,9

Aholi daromadlari – mintaq qishloq joylaridagi aholi daromadlari raqamli xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga ta‘sir etadi. Mintaqa qishloq joylarida aholining real daromadlari oshgan sari tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabi ham oshadi. Mintaqa qishloq aholisi daromadlari bilan shahar aholisi daromadlari

o‘rtasida ancha tafovut mavjud. Shahar aholisi daromadlari qishloq aholisining daromadlaridan 3-4 martaga ziyod. Shahar aholisining xizmatlardan foydalanish darajasi mintaq qishloq aholisining xizmatlardan foydalanish darajasidan 3-4 baravarga ortiq. Shu sababli ham shaharlarda xizmat ko‘rsatish va



uning turlari jadal sur'atlarda rivojlanadi. Mintaqa qishloq aholisining daromadlari past bo'lishiga sabab aholining mavsumiy ishlarda ishlashi, natural shaklda ish haqqi olishi, tadbirkorlik subyektlarining past ish haqi to'lashi kabilar sabab bo'lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqa qishloq joylarida bank xizmatlariga juda katta ehtiyoj bor, lekin aholi xoriydan yuborilgan pul jo'natmalarini olish uchun shahar hududida joylashgan bank xizmatlariga murojat qilishga majbur bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida aholidan shaharga kelib-ketish harajatlarini, ortiqcha vaqt yuqotilishini va shuningdek bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashning keskin oshishi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning kengayishiga olib keldi. Ammo, bu xizmatlar sohasida ham qishloq joylarda rivojlanishi ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Har bir oilalarning maishiy texnika bilan ta'minlanish darajasi yuqoriligini inobatga oladigan bo'lsak ushbu priborlarda nosozliklar kelib chiqqan taqdirda yoki nosoz maishiy texnikani sozlash uchun ta'mirlash ustaxonalari etishmaydi. Iste'molchilar tomonidan hozirgi kunda harid qilinayotgan maishiy texnikaning zamonaviy brendlar Artel, Samsung, Roison va hokazo kabi firmalarning tovarlarini sotib olganda, tovarlarga servis xizmati ko'rsatish 3-5 yil muddatga bepulligi kafolatlangan. Ammo, ularning ham, servis markazlari faqatgina shahar hududida joylashgan, bu esa qishloq joylarda iste'qomat qiluvchi fuqarolar harid qilgan va nosozlikka uchragan maishiy texnika priborlarini yuklab olib kelishda yuqorida aytganimizdek harajat va vaqt bilan bog'liq bo'lgan talabni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiruvchi asosiy unsur bu – tadbirkorlikdir.

Mintaqa qishloq joylari bo'yicha raqamli xizmat ko'rsatishning bir xil rivojlantirish dasturlarining qabul qilinishi ortiqcha moliyaviy xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agarda hukumat xizmatlar sohasini rivojlantirishda har bir viloyat, tuman va shaharlar kesimida alohida-alohida rivojlantirish strategiyasini qo'llasa, moliyaviy quyilmalarning aniqlik darajasi ortadi va o'z navbatida ortiqcha xarajatlarning oldi olinadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatishni aholiga turli biznes infratuzilmasini yaratish qulay bo'lishiga qaramasdan aholining ko'p kam ta'minlangan oilalari mintaqa qishloq joylarida yashamoqda. Bunga sabab mintaqa qishloq joylarida turli raqamli xizmat ko'rsatish tarmoqlarining qoniqarli darajada emasligi, tadbirkorlar tomonidan to'lanayotgan ish haqlari ham kam ekanligi, aholining mavsumiy ishlarda ishlashi sabab bo'lmoqda. Buning natijasida qishloq joylarida kambag'allik darajasi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami ortishiga olib kelmoqda.

Mintaqa qishloq joylarida yashovchi aholi qatlami turlicha bo'lganligi sababli, makroiqtisodiy o'zgarishlar aholi qatlamiga qanday ta'sir qilishi

mumkinligini tushunishimiz zarur hisoblanadi. Shu sababli bizlar ilmiy tadqiqotlarimiz asosida qishloq aholisiga ta'sir ko'rsatadigan uchta asosiy usulni aniqlab, uni ilmiy nazariy asoslash imkonini beradi. Mintaqa qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohasi xodimlarining mehnat salohiyati tahliliy xulosalari asosida ikki qismga ajratib o'rganish kelajakda ushbu sohalarida band aholining unga ta'sir etadigan omillarni to'g'ri baholash va tahlil qilish imkonini beradi.

Mintaqa qishloq joylarida aholi turmush darajasini oshirishga doir muammolarni hal etishda aynan ehtiyojmand holatda hayot kechirayotgan aholi qatlamlarini aniqlab, ularning sonini uzluksiz kamaytirib borishga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Har bir mintaqa qishloq joylarida aholi qatlamlari va uning ijtimoiy guruhlari o'rtasida katta darajada farq qilishidan kelib chiqib, aholi daromadlari va uning ba'zi xizmatlarga bo'lgan talabi qondirilishi tahlil qilib borilishi lozim.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Dilafuz Baymatovna Taylakova QDTU - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi / **Тайлакова Дилафруз Байматовна** Старший преподаватель кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / **Dilafuz Baymatovna Taylakova** Senior Lecturer of the Department of Innovative Economics Karshi State Technical University
taylakovadilafuz7@gmail.com
ORCID: 0009-0002-8051-4310

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarga yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. lex.uz/acts/3107036
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 16 iyunda "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021 yil 11 mayda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113 sonli qarori.
4. 2018 yil 14 iyulda "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-sonli Qarori.
5. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2009. - Б.104.
6. Muxammedov M. va boshqalar "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari". S.: Zarafshon 2017.-299 b.
7. Котлер, Ф., Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006.- 464 с.
8. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Ibodullaev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: Darslik - S.: SamISI, 2010 - 247 b.



9. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat turlari va ularning tavsifi. // Xizmatlar, xizmatlar va turizmni rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. Monografiya. T.: "IQTISODIYOT-MOLIYA", 2008, 37-bet.

10. . Pardaev M.Q. h.k. "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISODIYOT-MOLIYA", 2014. -384 b.

11. Mardonov B.B., Mustafoev G'.S. Kundalik mehnat bozorini o'rganish va tartibga solish (sotsiologik so'rov natijalari). Risola. Samarqand-2020 y.- 48 b.

12. Taylakova Dilafruz Vaymamatovna, "Sreating a strategically-oriented system management of entrepreneurial structures in the field of services", ijiert -

International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, Volume 7 Issue 2, ISSN: 2394-3696, Page No. 55-64

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori.

14. Ergashev R. X. Применение цифровых технологий в сельском хозяйстве //девелопмент иссуэс оф инновативе ээномой ин тхе агрисултурал сестор. – 2021. – с. 911-914.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz